

JANUBIY OROLBO‘YI XUDUDIDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASH MASALALARI

Atanazarov K.M.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali

Hozirgi kunda Davlatimiz rahbari, xukumatimiz, boshqaruv tashkilotlari va hamkor donor davlatlar ishtiroqi tomonidan Orol bo‘yi mintaqasida ekologik xavfsizligi barqarorlashtirish masalalariga katta e‘tibor qaratilmoqda.

2022 yil 8 fevralda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlari asosan chorvachilik tarmog‘ini jadal rivojlantirish hamda chorvachilikka ixtisoslashgan korxonalarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash maqsadida, respublikamizda xalq xo‘jaligining barcha sohalarida iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy va siyosiy jihatdan islohotlar davom etmoqda [1].

Mamlakat aholisining oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash muhim va asosiy vazifa hisoblanadi. Bu ishlarni amalga oshirishda xalq xo‘jaligining ustivor yo‘nalishi hisoblangan qishloq xo‘jaligi va uning muhim bo‘g‘ini bo‘lgan chorvachilik tarmog‘i alohida o‘rin tutadi. Ayniqsa, tabiiy resurslardan samarali foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish, chorvachilik sohasida infratuzilma xizmatlarini yanada rivojlantirish, chorvachilik va uning tarmoqlarida ilmiy-tadqiqot, ta‘lim va maslahat xizmatlarini kengaytirish bilan integratsiyalashgan bilim va ma‘lumotlarni tarqatishning samarador shakllarini joriy etish hamda sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Bu esa ushbu sohada faoliyat olib borayotgan barcha mutaxassislar zimmasiga ulkan mas‘uliyat yuklaydi.

Janubiy Orol bo‘yi mintaqasida kuchli cho‘llanish jarayonlari paydo bo‘ldi. Jumladan: Qizilqum va Ustyurt tekisligi tabiiy yaylovlarining o‘simliklar mahsuldorligi kamayib ketdi [4].

O‘zbekiston hududidagi yaylov sifatida foydalanilayotgan maydonlarning 17,4 mln. gektari cho‘l mintaqasiga to‘g‘ri keladi. So‘nggi 15-20 yil mobaynida ko‘chma chorvachilikda yaylovlardan belgilangan meyorlarda foydalanilmaslik va antropogen ta’sirlar natijasida chorva ozuqasi hajmining kamayishi sodir bo‘lmoqda. Hozirgi vaqtda mavjud cho‘l yaylovlarining mahsuldorligi yiliga o‘rtacha 1,5% kamayib bormoqda. Bu esa yiliga 16,5 va 20 yil mobaynida esa 465 ming gektar yaylov maydonlari degradatsiyaga uchraganligini bildiradi [2].

Orol dengizining qurigan tubi qariyb 5 million gektardan ortiq maydonni tashkil etadi. Shundan, 2,5 million gektardan ortig‘i O‘zbekiston hududiga to‘g‘ri keladi [3]. Ushbu paydo bo‘lgan “Orolkum” yer maydonlardan oqilona foydalanishni amalga oshirish maqsadida Orol dengizi qurigan tagigga hozirda 1,5 mln ga maydonlarda cho‘l o‘simliklaridan saksovul, cherkez, qandim va boshqada o‘simliklari ekilmoqda. Bu ishlarning amalga oshirilishi:

- birinchidan: dengiz suvi qurigan tubida hamda Orol bo‘yi hududlarida ekologik sharoitning yaxshilanishiga;

- ikkinchidan qumlarning ko‘chishi, chang to‘zonlarning deflyatsiyasi pasayishi, adirlashish jarayoniga, iqlim sharoitiga, o‘simliklar va hayvonlarning xilma-xilligi rivojlanishida ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi.

Orol dengizining suvi qurigan tubida o‘rmonzorlar va yaylovlar barpo etishda fitomeliorsiya uslublardan samarali foydalanish katta ahamiyatga ega. Bu borada Respublikada yangi texnologiyalar ishlab chiqish va ularni joriy etish zarur. Bu borada Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarining cho‘l xududlarida yaylov ozuqabop o‘simliklarini ekib ko‘paytirish va qorako‘lchilikni yanada rivojlantirish bo‘yicha davlatimiz rahbarining aniq ko‘rsatmalar berilgan. Bu esa dengizning suvi qurigan maydonlardan chorva mollari uchun yaylov sifatida foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Yuqoridagi keltirilganlardan kelib chiqqan holda, Janubiy Orolbo‘yi xududida ekologik xavfsizlikni ta‘minlash maqsadida Orol dengizning qurigan maydonlarida biologik resurslarini ilmiy asoslangan tadqiqotlar asosida o‘rganish zarur. Bunda cho‘l, yaylov ozuqabop o‘simliklarini florasi, bioekologiyasi, geobotanik tadqiqotlari va cho‘l o‘simliklarning ekib ko‘paytirishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish hamda qorako‘lchilikni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish lozim;

Dengiz suvi qurigan hududlarida cho‘l o‘simliklarini ekib ko‘paytirishda ko‘chatdan ekish keng qo‘llanilib kelinmoqda. Shu sababdan o‘sha hududning o‘zida o‘rmon pitomnigi tashkil etish lozim.

Xulosa o‘rnida, Orol dengizning qurigan maydonlarda cho‘l o‘simliklarining ekma plantatsiyalarini yaratish va qumlarning ko‘chishi, chang to‘zonlarning ko‘tarilishi, deflyatsiya pasayishi, o‘simliklar va hayvonlarning xilma-xilligi rivojlanishida ijobiy ta‘sirini ko‘rsatadi. Janubiy Orol bo‘yi mintaqasida ekologik muhitning barqarorlashishi va chorva mollari uchun yangidan yaylovlar paydo bo‘ladi. Bu mintaqada ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning yaxshilanishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida chorcavchilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-120 qarori. 8 fevral 2022 yil.

2. Davletmuratova V.B., Atanazarov K.M. «Halophitization of vegetation and the development of desertification in Karakalpakstan» /EPRA International journal of Multidisciplinary Research (IJMR). Vol.8., Issue 12, Desember 2022. pp. 161-163.

3. Новицкий З. Облесение засоленных почвогрунтов на осушенном дне Арала. “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi”, 2018 й., 8-сон, 33-бет.

4. Хамройев Н. Cho‘l yaylovlarining hozirgi holati va uni yaxshilashda ihotazorlarning o‘rni. “O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi”, 2018 y., 8-son, 31-bet.